



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2022-yil 15-iyun

Olmaliq shahrida joylashgan “MAXAM- UZBEKISTAN” O‘zbek-Ispan qo‘shma korxonasi MCHJda sodir bo‘lgan portlash yuzasidan “O‘zkimyosanoat” AJ RASMIY BAYONOTI



Joriy yilning 15-iyun kuni soat 17:55larda Toshkent viloyatining Olmaliq shahridagi “Ammofos-Maksam” AJ hududida ijara asosida faoliyat yuritadigan “MAXAM-UZBEKISTAN” O‘zbek-Ispan qo‘shma korxonasi MCHJning “Reoxit” portlovchi moddasini ishlab chiqarish sexida (Bino 2018-yilda pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, o‘lchami 15x30, balandligi 12 metr) texnologik reglament buzilishi natijasida portlash sodir bo‘lgan.

Voqea sodir bo'lgan vaqtda sexdan taxminan 10 metr uzoqlikda bo'lgan, "Logistika-plyus" MCHJga qarashli suyuq ammiakli selitra maxsulotini tashishga mo'ljallangan DAF rusumli, sig'imi 30 tn tank konteyneri haydovchisi, 1973-yilda tug'ilgan N.N.M chap oyoq boldir sohasida ochiq sinishi, ko'krak qafasi ishishi bilan Olmaliq shahar Markaziy shifoxonasining jonlantirish bo'limiga yotqizilgan. Hozirda ahvoli qoniqarli.

Voqea joyiga zudlik bilan Favqulodda vaziyatlar vaziri, FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolarining ilmiy tadqiqot instituti boshlig'i (navbatchi guruhi bilan), Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi rahbariyati hamda 3 ta yong'in-qutqaruv bo'linmalari yetib borishgan.

Hozirda holat yuzasidan tergov-surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-uzbekiston-uzbek-ispan-qushma-korxonasi-mchj-rasmiy-bayonot>